

ALIXONTO‘RA SOG‘UNIYNING “TURKISTON QAYG‘USI” ASARIDA VATAN, MILLAT VA MA‘RIFAT G‘OYALARI

Isoqov Abduxalim Shamsiddinovich, Inamjanov Elbek Anvarovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabalari

Ilmiy rahbar: Avezova Anajon Ko‘paysin qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-son o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 05.11.2025

Revised: 06.11.2025

Accepted: 07.11.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*Alixonto‘ra Sog‘uniy,
“Turkiston
qayg‘usi”, ma‘rifat,
milliy uyg‘onish,
Vatan, din, til,
mustaqillik, jaholat,
birlik.*

Ushbu maqolada Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Turkiston qayg‘usi” asaridagi asosiy g‘oyalar — millatni, dinni, tilni va Vatan mustaqilligini asrash zarurati tahlil qilinadi. Asarda Turkiston xalqlarining tarixiy yo‘li, ittifoqsizlik va ilmsizlik oqibatida yuzaga kelgan inqiroz sabablari, hamda mustaqillikka erishish uchun ma‘rifat va birlashish zarurligi yoritiladi. Muallifning diniy-axloqiy va milliy uyg‘onish haqidagi qarashlari hozirgi davr uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kirish

Ushbu kitob ulug‘ bobokalonlarimizdan bo‘lgan alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy qalamlariga mansub nodir bir asardir. Muallif “Turkiston qayg‘usi” (1966–1973) nomli bu asarida xalqimiz qanday qilib bosqinchilarga qaram bo‘lib qolgani va dinni, Vatanni, millatni asrash kerakligi, mustaqillikni qo‘lga kiritish uchun nimalar qilmoq zarur ekanligi to‘g‘risida o‘sha mustabid sovet tuzumi davrida yetuk siyosiy arbob sifatida chuqur siyosiy-ijtimoiy mantiq asosida mukammal bayon etadi. Turkiston o‘lkasi tarixida xalqning mustaqillik, erkinlik va ma‘rifat uchun kurashi o‘ziga xos sahifalarni tashkil etadi.

Jadidchilik davrining yirik vakillaridan biri Alixonto'ra Sog'uniy o'z asarlari orqali millatni uyg'otish, jaholatdan xalos etish, ilm va birlik sari chorlashni bosh maqsad qilib qo'ygan. Uning "Turkiston qayg'usi" asari shunday asarlardan biri bo'lib, u o'z davrining og'riqli haqiqatlarini, Turkiston xalqlarining tanazzul sabablarini ochib beradi.

Asosiy qism

1. Asarning mazmuni va tarixiy konteksti

Ulug' ruhlik, to'liq aqllik kishilarning aytishlaricha, har odam o'zida bor yaxshiliklaridan, undagi ilm-hunar fazilatlaridan boshqalarga foyda yetkudek, keyingilar ibrat olg'udek bir asar yozib qoldirishi, albatta, unga lozimdir.

Qaysi bir millatning ona tili o'z hojatini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamayoq, insoniy huquqlaridan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasizdir. Unday millatlar yolg'izgina Vatanlaridan emas, balki butun borlig'i bilan tarix yuzidan yo'qolishga majbur bo'ladilar.

O'tmishdagi tarixini unitib, endigi tarixini tuymagan bir millat, qorong'uda qolgan qo'lida tayog'i yo'q ko'r kishi kabi qayoqqa oyoq qo'yishini bilmaganligidan dushman yetakchisi keynidan ketishga majbur bo'ladi. Ochiq fikrli, sezgir Vatan o'g'illari tarixning qanday zarur ekanligini mening shu so'zlarimdan ilhom olib, chuqur tushunishlari kerak. Yuqoridagi so'zlardan ochiq ma'lum bo'ldiki, ilm-hunardan orqada qolib, boshqalar oyoq ostida ezilgan musulmonlar Qur'on hukmini amalga oshirolmay, haqiqiy islomiyatdan bahra topmagan ekanlar. Yo'q esa, Qur'on hukmlari, asosan, uch ishga to'xtalmish:

1. ittifoqlik;
2. zamonaviy ilm-hunarni o'rganib, har ishning sabablarini imkoniyat boricha to'liqlash;
3. dushman qarshisida o'limdan qo'rqqanlik.

Mana shu uch narsaga hayot olamida har kim ega bo'lar ekan, o'z Vatanlarini, butun insoniy huquqlarini bosqinchi dushmanlar hujumlaridan, albatta, saqlay oladilar.

"Turkiston qayg'usi" asarida muallif xalq qanday qilib bosqinchilarga qaram bo'lib qolganini chuqur tahlil qiladi. Asarda faqat tanqid emas, balki tarixiy saboqlar, ijobiy yechimlar ham ilgari suriladi. Sog'uniy Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan XIX asr oxirigacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlarini yoritadi, ularning davlat qurilishi, etnografiyasi va geografiyasiga oid muhim ma'lumotlarni beradi.

Muallif Turkiston xalqlarining eng katta fojeasi — ittifoqsizlik va ilmsizlik ekanini ta’kidlaydi. Har kim o‘z manfaatini ko‘zlagani, dushmanga qarshi birlashmagani oqibatida millat qulga aylangan. Ilm yo‘q joyda ma’rifat ham, taraqqiyot ham bo‘lmasligini qayd etadi.

2. Jaholat va befarqlik oqibatlari

Farobiylar, Ibn Sinolar chiqqan bu ulug‘ Vatanning va millatning kelgusi istiqboli uchun hech kim qayg‘urmas edi. Shunday ahvolda bo‘lishlariga qaramay, ittifoqsizlik balosining eng yuqori bosqichiga yetganliklarini ko‘rsatib, dushmanga qarshi birlashish o‘rniga doimo o‘zaro nizo va qon to‘kishlar bilan shug‘ullanib keldilar. Inqiroz bo‘lish oldida turishlariga qaramay, ilmsizlik natijasida buning oldini olish uchun qo‘llarida bor imkoniyatlardan ham foydalana olmadilar. O‘qish va o‘qitish ishlarini o‘rta asrdagidan farqi yo‘q edi. Yetarli iqtisodiy boyliklari mavjud bo‘la turib, davlatning mudofaa ishlariga hech qanday ahamiyat bermadilar. Askariy tartib shu eski usulda bo‘lib, nizomiy tartib kiritilmagan va zamonaviy qurollar yo‘q edi.

Bular Vatan va millatni oldida eng kechirilmas jinoyatchi odamlar, chunki davlatni inqirozga, millatni qullikka, Vatanni xorlikka olib keldilar. Qani ularni Qur‘on hukmiga amal qilganliklari ? Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) dedilar: ”Har bir oqil odam o‘z zamonasiga yaxshi tushunishi va shunga qarab ish qilishi kerak.”

Demak, Turkiston xalqi ongsizlik, ilmsizlik kasofatidan bunday baloga yo‘liqdi. Nima uchun keying asrlarda Turkiston xalqi bunday johiliyat botqog‘iga botdi ? Buning bosh sababi dinni asosi bilan tushunmagan ilm-madaniyat dushmanlari hokimiyat tepasida bo‘ldilar. O‘zlarini din homiylari deb e‘lon qilib, xalqni ma’rifat nuridan mahrum, zamonaviy ilmlardan butunlay yiroq tutdilar. Chet davlatlar bilan aloqa bog‘lamadilar, o‘qish va o‘qitish ishlariga e’tibor bermadilar.

3. Asardagi islohot g‘oyalari

Sog‘uniy asarida nafaqat tanqid, balki yechim ham bor. Unga ko‘ra, dushman ustidan g‘alaba qozonishning eng kuchli quroli — diniy e’tiqod va milliy hissiyotdir.

Muallif zamonaviy ilm-fanni o‘rganish, texnika va texnologiya yutuqlarini egallash, tilni, adabiyotni, milliy o‘zlikni asrashni xalqni yuksaltirishning yagona yo‘li sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan.

Agar biz til adabiyotimizni kengaytirib, uning qadr qimmatini oshirib, boshqa madaniy tillar darajasiga yetqizur ekanmiz, mana bu chogda millatimiz, milliy hissiyotlarimiz doimiy ravishda o‘sib saqlangusidir. Agar bunday bo‘lmay balki, aksincha, o‘z ona tili qadriga

yetmasdan unga ahamiyat bermas ekanlar, u chogda ko'p uzoqlamayoq alvido aytib, o'z tillaridan abadiy ajragan bo'ladilar. Shundoq bo'lib, o'z ona tilidan ajramoqlik, milliy hissiyotlarini yo'qotish natijasidir. Bu ish esa insoniyat olami oldida ulug' xiyonat, kechirilmas jinoyat hisoblanadi.

Oqil odam har ishdan ibrat olur,
Qaysi hol ichra tursa foydalanur.

Xulosa

Alixonto'ra Sog'unliy "Turkiston qayg'usi" asarida xalqni ma'rifatga, birlashishga, o'z tarixini unutmaslikka va milliy g'ururini saqlashga da'vat etadi. Asar Turkiston xalqlarining og'riqli taqdiri, ularning o'z qo'llari bilan yaratgan inqirozi haqida ogohlantiruvchi doston sifatida qadrlanadi. Sog'unliy fikricha, millatning najoti — ilm, birlik va milliy o'zlikni anglashdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sog'unliy A. Turkiston qayg'usi. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Xo'jayev H. Jadidchilik harakati tarixi. — Toshkent: Fan, 2014.
4. Boboyev M. O'zbek adabiyotida milliy uyg'onish g'oyalari. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
5. Sodiqov N. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'zbekiston, 2006.
6. Jadidlar.uz <https://jadid.uz/alixontora-soguniyning-turkiston-qaygusi-asaridan-iqtiboslar>